



“TASDIQLAYMAN”

**Namangan davlat universiteti rektori –
Kengashi raisi**

S.T. TURG'UNOV

2024 yil

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETINING «TALABALARNING
KREDIT-MODUL TIZIMI BO‘YICHA TA’LIM NATIJALARINI
BAHOLASH VA NAZORAT QILISH TARTIBI»**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Namangan davlat universitetining (keyingi o‘rinlarda–“universitet”) “Talabalarning kredit-modul tizimi bo‘yicha ta’lim natijalarini baholash va nazorat qilish tartibi” (keyingi o‘rinlarda – “Tartib”) o‘quv rejalarga muvofiq ta’limning kredit-modul tizimida o‘qiyotgan talabalar uchun universitetda ta’lim jarayonini tashkil etish, ularning ta’lim natijalarini baholash va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Tartib O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 31 yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi, 2021 yil 3 iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalariga akademik ta’til berish to‘g‘risida”gi nizomlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2012 yil 28 dekabrdagi 508-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi nizomlar, 2021 yil 16 iyuldagi 311-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”ga hamda Namangan davlat universiteti Ustaviga asosan ishlab chiqildi.

3. Talabalarning kredit-modul tizimi bo‘yicha ta’lim natijalarini baholash va nazorat qilishning maqsadi – yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga hamda zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek, talabalarda mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim sifati shaffofligini ta'minlagan holda o'quv jarayonlarini tizimli tahlil qilish, umumkasbiy va ixtisoslik kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalar bilimini baholashning shaffof, ob'yektiv va adolatli tizimini joriy etishdan iborat

4. Talabalarining kredit-modul tizimi bo'yicha ta'lim natijalarini baholash va nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq talabalarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish hamda tahlil qilib borish;

talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik, bilimlarni baholashda shaffoflikni ta'minlash;

o'quv materialining talabalar tomonidan tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot-resurs manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

talabalar bilimini ob'yektiv va adolatli baholash hamda uning natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish;

talabalarining o'quv rejasi doirasida kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash va boshqalar.

II. ASOSIY TUSHUNCHALAR

5. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

kredit – ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan ta'lim elementlari bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun va kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

kredit to'plash – ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

kreditlarni berish – malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish – talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

GPA (Grade Point Average) – ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \quad \text{bunda:}$$

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;
U – har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

o'quv reja – oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat;

o'quv fani – ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi;

o'quv semestri – oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin;

o'quv yili – oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili;

akademik mobillik – oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi – ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institusional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi (fan) katalogi – oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari – talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o'qish yuklamasi – talaba tomonidan ta'lim elementlari (o'quv faoliyati)ning barcha turlari – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs ish (loyihasi), malakaviy amaliyot, stajirovka, ilmiy seminar, mustaqil ish, attestatsiyalar (o'quv semestri yakunlari bo'yicha va yakuniy davlat attestatsiyalari)ni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ta'lim elementlari – ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish birliklari;

transkript – ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va

baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

III. TA'LIM JARAYONINI KREDIT-MODUL TIZIMI BO'YICHA TASHKIL ETISH

6. O'quv rejasida o'qish shakli kredit-modul tizimida belgilangan barcha ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida ta'lim shaklidan qat'iy nazar kredit-modul tizimi tatbiq etiladi.

7. Ta'limning kredit-modul tizimida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha talabalar tomonidan o'quv rejasida ta'lim dasturi elementlarini o'zlashtirish orqali kredit birliklari to'plab boriladi.

Bunda o'quv semestri davomida o'zlashtirishning faqat ijobiy ko'rsatkichlariga erishgan talabalarga ta'lim elementlari bo'yicha ko'zda tutilgan kreditlar taqdim etiladi.

Talabaning o'quv semestridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va ta'lim elementi uchun rejalashtirilgan kredit miqdorlari asosida o'zlashtirish ballari o'rtacha qiymati – GPA ko'rsatkichi hisoblanadi.

Universitet Kengashi tomonidan GPA ko'rsatkichining o'tish (minimal) qiymati belgilanadi hamda u talabalarining o'quv yili (semestri)ni muvafaqqiyatli yakunlaganligi va kursdan-kursga o'tkazilishi uchun asos hisoblanadi.

8. Har o'quv yili boshlanishida (odatda dastlabki ikki haftasida):

talabalarga o'quv rejasining o'quv yiliga rejalashtirilgan ta'lim elementlari ro'yxati, mazmuni, ular bo'yicha taqdim etiladigan kredit miqdorlari, GPAning o'tish qiymati, o'zlashtirish qoidalari, baholash mezonlari, fandan chetlashtirish tartiblari, o'zlashtirilmagan kreditlarni qayta o'zlashtirish tartibi, qoidalari va to'lov qiymatlari bo'yicha axborotlar beriladi;

fanlar bo'yicha o'quv dasturlari (sillabuslar) talabalarga yetkazilish maqsadida universitet veb-saytiga joylashtiriladi. Unda fan mazmuni, o'zlashtirish tartiblari, nazorat turlari, soni, shakllari va baholash mezonlari, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati aks ettiriladi;

o'quv rejasiga muvofiq fakultet dekani nazorati ostida tyutorlar rahbarligida har bir talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasida o'quv rejasida muqobillik asosida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashlariga imkoniyat yaratiladi;

tanlov fanlari belgilangan tartibga o'rnatilgan akademik guruhlar bo'yicha talabalarining eng kam soni tomonidan tanlangan taqdirda o'quv jarayoniga tatbiq etiladi;

talabalar tanlagan fanlarini har o'quv semestrining dastlabki birinchi haftasi ichida o'zgartirishlari mumkin. Bunda talabalar yakka yoki guruh bo'lib fakultet dekaniga murojaat qiladilar. Murojaat qanoatlantirilgan hollarda, fakultet dekani tegishli fanlarni o'qitadigan kafedra o'quv yuklamasi va shtat birliklariga o'zgartirish

kiritish bo'yicha universitet rektoriga taklif kiritadi;

talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati berilishi mumkin. uning tartibi universitet Kengashi tomonidan belgilanadi.

9. O'quv rejasiga muvofiq, talabaga bir o'quv semestrida 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plash imkoniyati beriladi. 1 kredit 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga tengdir.

Kunduzgi ta'lim shaklida fanlar bo'yicha o'quv yuklamasining bakalavriatda 40-50 foizi, magistraturada 30-40 foizi auditoriya soatlariga ajratiladi.

Sirtqi ta'lim shaklida fanlarning o'quv yuklamasida auditoriya soati ulushi kunduzgi ta'lim shaklining kamida 30 foizi miqdorida, kechki ta'lim shaklida haftasida 20 soat hajmida belgilanadi.

10. Ta'lim davrining butun muddati uchun jami kreditlar:

bakalavriat ta'lim bosqichida – o'qish muddati 3 yil bo'lganda 180 kredit (5400 akademik soat), 4 yil bo'lganda 240 kredit (7200 akademik soat), 6 yil bo'lganda 360 kredit (10800 akademik soat) miqorida;

magistratura bosqichida – o'qish muddati 1 yil bo'lganda 60 kredit (1800 akademik soat), 2 yil bo'lganda 120 kredit (3600 akademik soat) miqorida belgilanadi.

11. Davlat qabul komissiyasining qo'shimcha qabul yoki to'lovlarni amalga oshirish muddatini uzaytirish bo'yicha qarorlari sababli uzaytirilgan muddatlarda o'qishga qabul qilingan talabalarning ta'lim elementlarini o'zlashtirishi, davomati va kreditlar to'plash muddati – ular talabalikka tavsiya etilgan sanadan boshlanadi.

IV. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING TA'LIM NATIJALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

12. Universitetda talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

13. Oraliq nazorat fan dasturlarining tegishli bo'limi tugagandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida semestr davomida o'tkaziladi.

Oraliq va yakuniy nazorat turlarining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

14. Oraliq nazorat turi har bir fan xususiyati va hajmidan kelib chiqib, bir semestrda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turi soni, o'tkazish shakli va muddati fan o'qitiladigan kafedra tomonidan belgilanadi va o'quv semestri boshlanishidan kamida 1 hafta oldin fakultet dekanatiga taqdim etiladi.

Oraliq nazorat turi fanning o'quv dasturi (sillabusi)da aniq ko'rsatilishi shart.

15. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek, uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan semestr davomida baholanib boriladi hamda oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi.

Bunda, mashg'ulotlarda qo'yilgan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turida qo'yilgan baho bilan qayta o'rtalashtiriladi va rasmiylashtiriladi.

16. Auditoriya mashg'ulotlari haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot yo'nalishlarida 4 akademik soatdan) kam bo'lgan fanlardan oraliq nazorat turi o'tkazilmaydi.

Oraliq nazorat o'tkazilmaydigan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi bahosi amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarining bajarilishi, shuningdek, uning ushbu mashg'ulotlardagi talabaning faolligi uchun qo'yilgan baholar o'rtachasi bo'yicha olinadi.

17. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot yo'nalishlarida fan yakunida) tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

18. Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli shu fanni o'qitadigan kafedra tomonidan belgilanib, fan o'quv dasturi (sillabus)da aks ettiriladi hamda fakultet dekanati tomonidan ishlab chiqiladigan va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

19. Yakuniy nazoratni o'tkazishda tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchining ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kelishuv asosida yakuniy nazorat turini o'tkazish va baholashda boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin. Bunda taklif etilgan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida haq to'lashga ruxsat etiladi.

20. Tibbiyot yo'nalishlarida oraliq va yakuniy nazorat turlari kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

21. Tibbiyot yo'nalishlarida oraliq va yakuniy nazorat turlari ob'yektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki ob'yektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o'tkazilishi mumkin.

22. Oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha topshiriqlar:
talabalar tomonidan fanning dolzarb mavzulari hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga qaratilishi, mantiqan va tushunarli tilda ifodalanishi;
talabalarning fanni o'zlashtirish darajasini, tahlil qilish ko'nikmalarini, mustaqil

fikrlash va kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi;

aniq normativ-huquqiy hujjatlar normalariga asoslangan va amaliyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi;

fan mazmunining o‘zgarishini inobatga olinib, har o‘quv yilida yangilanib borilishi lozim.

23. Kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Talabaning ta’lim natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – “5” (a’lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – “4” (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – “3” (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – “2” (qoniqarsiz) baho.

24. Talaba tegishli fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan, shuningdek, o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, kurs ishi (loyihasi)ni himoya qilgan bo‘lishi shart.

Kurs ishi (loyihasi)ni muvafaqqiyatli himoya qila olmagan talabalar tegishli fandan akademik qarzdor hisoblanadi.

25. Quyidagi hollarda talaba tegishli fandan yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi: oraliq nazorat turini topshirmagan, agar o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan kurs ishi (loyihasi)ni himoya qilmagan bo‘lsa, shuningdek, ushbu nazorat turi va himoya bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholanganda;

bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirganda.

26. Kurs ishi (loyihasi), malakaviy amaliyotlar, magistratura talabasi stajirovkasi, bitiruvchi bosqich talabalarining yakuniy davlat attestatsiyasi va boshqa o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari ta’lim elementlari bo‘yicha talabalar bilimi ushbu tartibning 23-bandida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi hamda alohida qaydnomalarga rasmiylashtiriladi.

Sirtqi va kechki ta’lim shakllarida kurs ishi (loyihasi)ni baholash natijalari oraliq nazorat turi sifatida qabul qilinadi.

27. Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilmaydi, yakuniy nazorat turlarini o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanadi.

28. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan, kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

29. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini alohida grafik asosida fakultet dekanining farmoyishi asosida topshirishiga ruxsat beriladi.

30. O'quv semestri yakunlanishiga bir oy muddat qolgandan boshlab mazkur semestr uchun turmush o'rtog'i yoki ota-onasi hukumat qarorlari va topshiriqlariga muvofiq xorijiy davlatga uzoq muddatli xizmat safariga yuborilayotganligi sababli talabaga uning arizasiga asosan alohida grafik asosida darslarni o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Bunday tartib, agarda asoslantiriluvchi hujjatlar taqdim etilganda, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish, oilasining betob a'zosini parvarish qilish maqsadida akademik ta'til olish maqsadidagi talabalarga ham qo'llanilishi mumkin.

Navbatdagi semestrda ushbu talabalar dars mashg'ulotlarida bevosita ishtirok etishi yoki akademik ta'til olishi yoxud o'z arizasiga ko'ra talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

31. Akademik qarzdor talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

O'zlashtirilmagan kreditlar bo'yicha to'lov qiymati tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bazaviy to'lov-kontrakt miqdorini o'quv rejasida bir o'quv yiliga ajratilgan jami kreditga bo'lish orqali bir kreditga to'g'ri keladigan qiymatni aniqlash yo'li bilan hisoblanadi.

32. Akademik qarzdorlik keyingi o'quv semestri davomida, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari paytda yoki talabaning tashabbusi bilan universitetda tashkil etiladigan yozgi semestrda bartaraf etilishi mumkin.

Bunda talabaga o'quv semestri fanlaridan o'quv jarayonlarida ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi.

33. Keyingi o'quv semestri yoki yozgi semestrda qayta o'qish quyidagi reglament asosida tashkil etiladi:

akademik qarzdor talabalar mavjud akademik qarzlarini bartaraf etish maqsadida qayta o'qish uchun arizalarni o'z tashabbusi bilan attestatsiya xaftalaridan keyingi birinchi hafta mobaynida amalga oshirishlari shart;

qayta o'qish uchun arizalar www.student.namdu.uz HEMIS platformasidagi talabaning shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladi. Akademik qarzdor talaba ariza taqdim etgan hafta (attestatsiya haftalaridan keyingi birinchi hafta)sidan boshlab keyingi hafta yakuniga qadar to'lovni amalga oshirishi lozim;

qayta o'qish ta'lim shakllariga (kunduzgi, kechki, sirtqi) ko'ra talabalarning murojaatlari asosida oflayn (an'anaviy) yoki onlayn (masofaviy va yakka tartibdagi maslahatlar) tartibda amalga oshiriladi;

qayta o'qish uchun mashg'ulot yoki konsultatsiyalar jadvallari fakultet dekanati va o'quv-uslubiy boshqarma (ofis registrator) hamkorligida ishlab chiqiladi. O'qitish shakllari va jadvallari talabalarga taqdim etiladi;

yozgi semestrda tashkil etiladigan qayta o'qishning haftalik yuklamasi odatdagi semestrlardagi haftalik yuklamadan oshib ketmasligi lozim;

darslar mashg'ulot va konsultatsiyalar jadvallari ishlab chiqilgan haftadan keyingi dastlabki haftada tashkil etiladi;

qayta o'qish davrining davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi;

avgust oyining so'ngi haftasi qayta o'qishning attestatsiya haftasi etib belgilanadi.

Qayta o'qish jarayonlariga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lash yoki moddiy rag'batlantirib borish tartiblari qo'llaniladi.

34. Talaba uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek, amaliyot yakunlari bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baholangan hollarda u akademik qarzdor hisoblanadi.

Malakaviy amaliyot bo'yicha uzrli sabablarga ko'ra akademik qarzdor talabaga (34-band, 3-hatboshidagi xolat mustasno) mazkur Tartibning 31-32-bandlarida belgilangan qoidalar asosida qayta o'zlashtirilishiga ruxsat beriladi.

Agar amaliyot dasturi qayta o'zlashtirishni o'quv mashg'ulotlaridan tashqari yoki ta'til davrida bajarish imkonini bermasa, talaba belgilangan tartibda kursdan qoldiriladi.

35. Tegishli ta'lim elementlaridan o'zlashtirish ko'rsatkichi "3" (qoniqarli) va undan yuqori bahoni tashkil etganda talabaga o'quv semestri bo'yicha shu ta'lim elementiga ajratilgan kredit beriladi.

Talaba ta'lim elementi bo'yicha qoniqarsiz baholanganda unga kredit berilmaydi.

36. Ikki yoki undan ortiq o'quv semestrlarida davom etadigan fanlar bo'yicha talabalar bilimni baholash ushbu Tartibda o'rnatilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Bunda bitiruvchining diplom ilovasi hamda o'qish davri mobaynida taqdim etiladigan transkript (akademik ma'lumotnoma)da shu fan o'qitilgan oxirgi semestrda o'zlashtirish ko'rsatkichi rasmiylashtiriladi.

V. TALABALARNI KURSDAN KURSGA O'TKAZISH, KURSDA QOLDIRISH VA TALABALIK SAFIDAN CHYE TLASHTIRISH

37. Talabaning GPA ko'rsatkichi o'tish qiymatiga teng va undan yuqori bo'lganda hamda o'quv yili bo'yicha barcha fanlar va boshqa ta'lim elementlarini o'zlashtirilganda kursdan kursga o'tkaziladi.

Qayta o'zlashtirish natijasi bo'yicha GPA ko'rsatkichi o'tish qiymatini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

Fakultet dekani tomonidan kursda qoldirilgan talabani rektor buyrug'i bilan tanishtiradi va unga kursni qayta o'qish tartiblari hamda keyingi o'quv yilida o'quv semestrining boshlanish sanasini ma'lum qiladi.

Kursdan qoldirilgan talabaga shu o'quv yilida kursni qayta o'qishga ruxsat berilmaydi.

38. Kursda qoldirilgan talabalar tegishli fan (lar)ni o'zlashtirmagan o'quv semestri boshidan, faqat shu fan (lar)ni qayta o'qiydi. Bunda to'lov-kontrakt qiymati mazkur Tartibning 31-bandida belgilangan qoidalar asosida hisoblanadi.

39. Kursda qoldirilgan talabalarning kursni qayta o'qishi quyidagi tartibda tashkil etiladi:

talaba tegishli o'quv semestri boshlanishidan oldin (kuzgi semestr bo'yicha 25 avgust, bahorgi semestr bo'yicha 15 fevraldan kech bo'lmagan holda) kursni qayta o'qish yuzasidan universitet rektori nomiga ariza bilan murojaat qiladi;

ariza asosida fakultet dekani talabaning qayta o'qiydigan (o'zlashtiradigan) fan va boshqa ta'lim elementlari ro'yxati hamda ularga ajratilgan kreditlar miqdorini hisoblaydi, shu asosda o'qishning to'lov-kontrakt qiymatini belgilaydi hamda talabani xabardor qiladi;

talaba o'qishning belgilangan to'lov-kontrakt to'lovini amalga oshirgandan so'ng, uning kursni qayta o'qishiga ruxsat berish to'g'risida rektor buyrug'i chiqariladi.

Kursda qoldirilgan talabalar keyingi kurslarni faqat to'lov-kontrakt asosida o'qiydilar.

40. Talabalarga stipendiya tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

41. To'lov-kontrakt asosida bir kursda qayta o'qish soni chegaralanmaydi.

Biroq, jami ta'lim olish muddati bakalavriat uchun 1-kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1-kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4 yilgacha, deb belgilanadi.

Mazkur muddatlarda tegishli kreditlarni to'plamagan va fanlarni o'zlashtirmagan talabalarning barcha kreditlari kuydiriladi va talabalar safidan

chetlashtiriladi.

Bunday hollarda talabalar safidan chetlashtirilgan talabalar o'qishi qayta tiklanmaydi.

42. Talabalar quyidagi hollarda talabalik safidan chetlashtiriladilar:

- a) o'z xohishiga binoan;
- b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;
- v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);
- g) o'quv intizomini va universitetning ichki tartib-qoidalarini hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;
- d) jami ta'lim olish muddati davomida mos kurs va semestrlarga ajratilgan kreditlarni to'play olmaganligi uchun (bakalavriat bo'yicha o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yil, magistratura bo'yicha o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4 yil ichida);
- ye) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- j) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);
- z) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- i) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);
- k) vafot etganligi sababli.

43. Talaba mazkur Tartibning 42-bandini, "a", "b", "v", "z", "i", "k" bandlariga ko'ra talabalar safidan chetlashtirilganda uning o'qigan muddati uchun haqiqatda sarflangan xarajatlar chegirilgan holda tegishli o'quv yili yoki semestri uchun oldindan amalga oshirilgan to'lovning qolgan qismi tegishli taraf yozma murojaatiga ko'ra qaytarib beriladi.

Bunda, qaytariladigan to'lov miqdori o'quv yilining oxiriga qadar qolgan oylar sonini tegishli o'quv yiliga tasdiqlangan to'lov-kontrakt miqdorining o'n ikkidan (bitiruvchi kurslar uchun o'ndan) bir qismiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Talabaning talabalar safidan chetlatilganligi haqidagi buyruq chiqarilgan oyning oxirgi sanasigacha bo'lgan davr – talabaning o'qigan muddati hisoblanadi.

VI. TALABALAR O'QISHINI KO'CHIRISH, TIKLASH VA AKADEMIK MOBILLIK

44. Talabalar o'qishini ko'chirish va tiklash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

45. O'qishini boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirib ketayotgan talabalarga ularning universitetdagi o'qigan o'quv semestrlari bo'yicha o'zlashtirish

ko'rsatkichlari va to'plagan kreditlari aks ettirilgan va belgilangan namunadagi transkript taqdim etiladi.

46. Fakultet dekanati tomonidan o'qishini ko'chirib kelayotgan va tiklayotgan talabalarning ilgari o'qigan ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan transkript asosida uning kursi va semestri belgilanadi hamda bu haqda talaba rasman xabardor qilinadi.

47. Kredit-modul tizimi tatbiq etilmagan oliy ta'lim muassasalaridan, shu jumladan, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirib kelayotgan, shuningdek, kredit-modul tizimi amalda bo'lmagan davrda talabalikdan chetlashtirilib, o'qishini qayta tiklayotgan talabalarning kreditlari mos kurs va o'quv semestrigacha bo'lgan davrdagi o'zlashtirgan o'quv dasturlari asosida hisoblanadi va qayd etish hujjatlarida rasmiylashtiriladi.

48. O'qishini ko'chirib kelayotgan va tiklayotgan talabaning mos kursi va semestri quyidagi qoidalar asosida belgilanadi:

taqdim etilgan transkript, o'qishi ko'chirilayotgan (tiklanayotgan) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) o'quv rejasi hamda fanlar katalogi, o'quv dasturlari (sillabus) asosida akademik farqlar aniqlanadi;

o'quv rejasi majburiy fanlar blokidagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha akademik farqlar 4 tadan oshgan taqdirda o'qishi ko'chirilayotgan talabgorga mos kurs yoki o'quv semestri taklif qilinadi yoxud rad javobi beriladi;

akademik farqlar faqat tugallangan fanlar bo'yicha, fanlar katalogi va o'quv dasturlari (sillabus) mazmuni asosida (fanning nomlanishi bilan emas) belgilanadi. Bunda ikki yoki undan ortiq semestrlarga taqsimlangan fanlarning yarmidan ko'pi o'qitib bo'lingan bo'lsa, fan tugallangan hisoblanadi va akademik farq sifatida qabul qilinadi;

4 tadan ortiq bo'lmagan akademik farqlar, mutaxassislikka oid bo'lmagan fanlar, tanlov fanlari va boshqa ta'lim elementlari bo'yicha farqlar mavjud bo'lganda, talabgor tegishli kurs va o'quv semestriga akademik qarzdor sifatida qabul qilinadi;

akademik qarzdor sifatida qabul qilingan talabaga mazkur Tartibning 31-32-bandlarida belgilangan qoidalar asosida qarzdorlikni qayta o'zlashtirilishiga ruxsat beriladi;

talabgor ilgari o'qigan oliy ta'lim muassasasidagi akademik qarzdorligi mavjud holda o'qishini ko'chirishi (tiklashi) mumkin. Bunday holda talabgor akademik qarzdor sifatida talabalikka qabul qilinadi. Qarzdorlik fani akademik farq sifatida belgilanmaydi.

49. Akademik mobillikni ta'minlash va talabaning kreditlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va universitetda kreditlarni

tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risidagi kelishuvda akademik mobillik dasturi davomida to'lov-kontrakt to'lovi va boshqa ta'limga oid xarajatlar uchun to'lovlar qaysi oliy ta'lim muassasasiga to'lanishi belgilanadi.

50. Talaba tomonidan universitet ta'lim dasturi bo'yicha to'plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta'lim muassasasida belgilangan ta'lim olish natijalariga muvofiq o'zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

51. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

52. Talabaning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas.

Xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va kreditlar tan olinishi belgilanadi.

53. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga mutanosib bo'lishi kerak.

Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan mobillik davrida talabaning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi.

Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasiga qaytib kelgach, mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

54. Universitet talabalarga akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanish majburiyatini oladi. Bunda akademik farqlarni bartaraf etishda talabadan to'lov talab qilinmaydi.

55. Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlarni tuzish talab etilmaydi.

56. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertasiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

57. Stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuv (shartnoma) talaba, oliy ta'lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

58. Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

59. Mazkur Tartibda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqadigan nizolar universitet Kengashida hal qilinadi.

60. Ta'lim jarayoniga oid, lekin mazkur Tartibda nazarda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

61. Mazkur Tartibda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

62. Universitet Kengashi tomonidan mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Talabalarning kredit-modul tizimi bo'yicha ta'lim natijalarini baholash va nazorat qilish tartibi»ning mazkur taxriri Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil «20» aprel da navbatdan tashqari o'tkazilgan № 12-sonli majlisi qaroriga asosan tasdiqlandi.